

## Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024-yilning 3-choragida amalga oshirilgan ishlar

Boshqarmada o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni doirasida joriy yilning 4-mart kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son Qaroriga alohida to'xtalib o'tildi. Takidlandiki, yangi qarorda:

- Statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistika ma'lumotlarini tayyorlash va ularni elon qilish jarayonlariga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmasligi;

- Navoiy viloyatining 2024-2025-yillarda erishishi lozim maqsadli ko'rsatkichlari;

- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil va bevosita Statistika agentligiga bo'ysunishi;

Shuningdek, Navoiy viloyati statistika tizimida 2024-yil 3-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijro holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar tayyorlanib, har oyda Statistika agentligi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2024- yilning 3-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **81 217,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023-yilning mos davri bilan taqqoslaganda **7,4** foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **102,1** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **107,8** foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **15,1** trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,1** foizga yetdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2023- yilning mos davriga nisbatan (**129,1** foiz) o'sish kuzatildi. Viloyatda jami **8,7** trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **116,3** foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) **29 569** tani tashkil etib, ulardan **21 209** tasi yoki **71,7** foizi faoliyat ko'rsatmoqda. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda **2 482** ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **630** taga kamaygan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13,8** trln. so'mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,2** foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **9,9** trln. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **109,2** foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar- sentabr oylarida **1 187,9** mln. AQSH dollarini, jumladan eksport **834,5** mln. AQSH dollarini va import **353,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1-oktabr holatiga viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **1 090,0** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **14,8** ming kishiga yoki **101,4** foizga o'sdi.